



## OIL INTERESTS AND INTERSTATE RIVALRY IN THE NEAR AND MIDDLE EAST AT THE END OF THE 19TH - BEGINNING OF THE 20TH CENTURY

**Azizbek Kholliev**

*Doctor of Historical Sciences, Acting Professor*

*National University of Uzbekistan*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Near and Middle East, oil, rivalry, international relations, concession, sphere of influence, Great Britain, Iran, Russia, Germany, interests, d'Arcy.

**Received:** 20.03.25

**Accepted:** 22.03.25

**Published:** 24.03.25

**Abstract:** This article examines in detail the characteristics of rivalry over oil interests, which played an important role in interstate relations between the great powers in the Near and Middle East during the historical conditions of the late 19th - early 20th centuries. The main focus is on the analysis of diplomatic and other practical actions related to obtaining concessions for oil extraction and transportation in the region. The activities of specific historical figures involved in interstate relations on the issue under study are also highlighted.

## XIX ASR OXIRI - XX ASR BOSHIDA YAQIN VA O'RTA SHARQDA NEFT MANFAATLARI VA DAVLATLARARO RAQOBAT

**Azizbek Xolliyev**

*Tarix fanlari doktori, professor v.b.*

*O'zbekiston Milliy universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Yaqin va O'rta Sharq, neft, raqobat, xalqaro munosabatlari, konsessiya, ta'sir doirasi, Buyuk Britaniya, Eron, Rossiya, Germaniya, manfaatlar, d'Arsi.

**Annotatsiya:** Taqdim etilgan maqlolada XIX asr oxiri - XX asr boshiga xos bo'lgan tarixiy sharoitlarida buyuk dalatlarning Yaqin va O'rta Sharqdagi davlatlararo munosabatlarda muhim o'rin egallagan neft manfaatlari masalasi bo'yicha raqobatning xususiyatlari atroflichcha ko'rib qiqilgan. Asosiy e'tibor mintaqada neftni qazib olish va tashishga oid konsessiyalarini qo'lga kiritish bilan bog'lik diplomatik va boshqa amaliy harakatlarni tahlil qilishga qaratilgan. Davlatlar

o‘rtasidagi munosabatlarda ishtirok etgan aniq tarixiy shaxslarning o‘rganilgan masala bo‘yicha faoliyati ham yoritib berilgan.

## НЕФТЯНЫЕ ИНТЕРЕСЫ И МЕЖГОСУДАРСТВЕННОЕ СОПЕРНИЧЕСТВО НА БЛИЖНЕМ И СРЕДНЕМ ВОСТОКЕ В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XIX В

*Азизбек Холлиев*

*Доктор исторических наук, и.о. профессора*

*Национальный университет Узбекистана*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Ближний и Средний Восток, нефть, соперничество, международные отношения, концессия, сфера влияния, Великобритания, Иран, Россия, Германия, интересы, д’Арси.

**Аннотация:** В представленной статье подробно рассматриваются особенности соперничества по проблеме нефтяных интересов, игравших важную роль в межгосударственных отношениях великих держав на Ближнем и Среднем Востоке в исторических условиях конца XIX - начала XX в. Основное внимание уделяется анализу дипломатических и других практических действий, связанных с получением концессий на добывчу и транспортировку нефти в регионе. Также освещена деятельность конкретных исторических личностей, участвовавших в межгосударственных отношениях по изучаемому вопросу.

### Kirish

Avvalo shuni ta’kidlash joizki, Yaqin va O‘rta Sharq XIX asr oxiri - XX asr boshida xalqaro munosabatlar tizimida muhim o‘rin egallagan. Mazkur mintaqada buyuk davlatlar tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilashda neft manfaatlari alohida ahamiyat kasb etgan. Bu manfaatlar asosida jahon neft bozorlarida hukmronlik uchun jiddiy kurash boshlanib, neft konlariga egalik qilish borasida keskin raqobat vujudga kelgan. Neftli hududlarni nazorat qilish va ularning zaxiralaridan foydalanish ko‘rib chiqilayotgan davrdagi jahon siyosatining eng muhim omillaridan biriga aylangan.

Bugungi kunda ham Yaqin va O‘rta Sharq neft uchun kurashda yetakchi davlatlar va yirik neft kompaniyalarining manfaatlari to‘qnashadigan asosiy maydondir[1]. XX asr boshida bu hududda neft sanoati deyarli mavjud emasdi. Ammo aynan o‘sha paytda bu yerda dastlabki qidiruv ishlari boshlangan bo‘lib, ularning natijasi yaqin kelajakda eng optimistik kutilmalardan ham oshib ketishi taqdирга bitilgan edi. Shu vaqtдан boshlab Yaqin va O‘rta Sharqdagi neft uchun kurashning butun bir dostoni boshlanadigan voqealar ildiz otdi.

### Tahlil va natijalar

O'rta Sharqda o'rnashib olishga bo'lgan ilk urinish 1872 yilda Eronda konsessiya olgan ingliz tadbirkori Yu. Reyterga tegishlidir. Eron ingliz sarmoyasining kirib kelishi uchun qulay hudud edi. Yu. Reyter Rossiya bilan chegarada qidiruv ishlarini boshlashni mo'ljallagan edi. Biroq, Rossiya buni o'z manfaatlariga tahdid deb baholadi va rus hukumatining e'tirozi natijasida konsessiya bekor qilindi[2].

Konsessiyaning barbod bo'lishiga Yu. Reyterning puxta rejalshtirilgan korxonani moliyalashtirishda duch kelgan qiyinchiliklari ham katta ta'sir ko'rsatdi. Kerakli mablag'ni qo'lga kiritish uchun qilgan barcha urinishlari mutlaqo samarasiz bo'ldi[3].

Shunday bo'lsa-da, inglizlar o'z rejalaridan voz kechmadilar va 1889 yilda Yu. Reyter Eronda o'zi asos solgan ingliz Shohinshoh banki vositasida hamda Tehrondagi Britaniya elchisi G.D. Uolning faol ko'magida Eronning yer osti boyliklarini o'zlashtirishga yangi konsessiya oldi. Ular qidiruv ishlarini boshlab yubordilar, ammo hech qanday natijaga erisha olmadilar va muddat tugagach, konsessiya o'z kuchini yo'qotdi[4].

1891 yilda Fransiyaning Jak de Morgan boshchiligidagi arxeologik ekspeditsiyasi Eronga tashrif buyurib, Turkiya-Eron chegarasida tabiiy neft quduqlarini topdi. Keyinchalik e'lon qilingan ushbu ekspeditsiya hisoboti inglizlarning e'tiborini yana Eron neftiga qaratdi va ular neft konesiyasi uchun yangi arizasini tuzishda undan foydalanishdi. 1900 yilda Eronga Turkiya bilan chegaradagi neft konlarini o'rgangan ingliz ekspeditsiyasi yuborildi. Inglizlar qo'lga kiritgan natijalar ijobjiy bo'lib chiqdi va 1900 yilda yangi konsessiya to'g'risida muzokaralar boshlandi. Ular Parijda boshlanib, Londonda davom etdi. Tez orada bitim tuzildi, unga ko'ra o'tmishda oltin qazib olishdan katta boylik orttirgan avstraliyalik tadbirkor Uilyam Noks d'Arsi Eronda neftni qidirish va qazib olish monopoliyasini qo'lga kiritdi[5]. Biroq, bu bitim hali Eron shohining roziligiga erishishi va rasmiy konsessiya shaklini olishi lozim edi.

Konsessiya bo'yicha muzokaralar qat'iy sir saqlangan holda olib borilib, 1901 yil 28 mayda rasmiy hujjat imzolanishi bilan yakunlandi. Unga ko'ra, Britaniya fuqarosi d'Arsi 60 yil mobaynida 1.250.000 kvadrat kilometr maydonda neftni qidirish, qazib olish, tashish va sotish bo'yicha mutlaq huquqqa ega bo'ldi. Eron hukumati unga zavodlar va neft omborlari qurish uchun yer uchastkalarini, shuningdek, boshqa bir qator konsessiyalarini taqdim etishga majbur bo'ldi. D'Arsi shohga 20 ming funt sterlinggacha aksiya va naqd pulni, u ikki yil ichida tashkil etishi lozim bo'lgan neft kompaniyasi mablag'laridan berishi, shuningdek, Eron xazinasiga yillik sof foydaning 16 %-ni o'tkazishi kerak edi[6]. Biroq d'Arsi bu g'oyat imtiyozli shartlarni bajarishdan ham bo'yin tovlab, shohga bir funt ham to'lamadi. Buning o'rniga ingliz tadbirkori to'lovni faqat aksiyalar bilan amalga oshirishga ruxsat olishga erishdi. 1901 yil

mayida d'Arsi "First Exploitation C°" ni tashkil etib, shohning e'tiborini qozonish uchun unga 60.000 va saroy a'yonlariga 20.000 funt sterling miqdorida aksiyalar berdi[7].

Burg'ulash ishlari Hindiston jamoat ishlari departamentining sobiq xodimi J. Reynolds rahbarligida boshlandi. 1904 yil yanvarida neft topildi, biroq quvonch uzoqqa cho'zilmadi: may oyiga kelib quduq allaqachon qurib qolgan edi[8].

Inglizlar tez orada moliyaviy qiyinchiliklarga duch keldilar. Dastlabki neft favvoralari haqida Londonga xabar yetib kelganda, d'Arsi qiyinchiliklar ortda qoldi deb o'ylab, bu voqeani nishonladi. Ammo birinchi xabardan so'ng tez orada quduqlar neft berishni to'xtatgani haqidagi ma'lumot chuqur umidsizlikni keltirib chiqardi va kreditorlar qidirishga majbur qildi[9].

D'Arsi Erondagagi tashabbusiga katta miqdorda shaxsiy mablag' sarfladi. Biroq boshidanoq unga Britaniya hokimiyati tomonidan qo'llab-quvvatlash ta'minlangan edi. Ingliz ma'murlari har safar qiyin vaziyatlarda unga yordamga kelishardi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda Eron Buyuk Britaniya manfaatlarining eng muhim ob'ektlaridan biri edi. Bir necha yillar davomida inglizlar o'zlari uchun iqtisodiy va harbiy-strategik jihatdan muhim bo'lgan O'rta Sharq mintaqasida ustunlik uchun qattiq kurash olib bordilar[10]. Shu bois d'Arsining konsessiyasi bir tadbirdorning shaxsiy ishi emas edi. D'Arsining har qanday harakati dastlabki qadamlaridan oq aniq siyosiy tus oldi. Shuning uchun konsessiya shartnomasini tuzishda, keyinchalik esa uni himoya qilishda rasmiy Britaniya diplomatiyasi eng faol rol o'ynadi.

Tehrondagi Britaniya diplomatik missiyasi konsessiya manfaatlariga daxldor Rossiya vakillarining qarshiligini bartaraf etish rejasini tuzishda ishtirok etdi. Inglizlar kelishuvni yakunlagach, Eron bosh vazirining vakili rus elchisiga tashrif buyurib, konsessiya shartnomasi tuzilganini ma'lum qildi[11].

Eron buyuk davlatlarning kuchli ta'siri ostidagi mamlakat edi. Shu ma'noda, bu yerda inglizlarga Rossiyada neft korxonalarini tashkil etishda duch kelgan qiyinchiliklarni yengib o'tishiga to'g'ri kelmagan edi..

Biroq Eron Buyuk Britaniya va Rossiya o'rtasidagi raqobat maydoni ham edi. Shu sababli, bu mamlakatlardan biriga yon berish chog'ida, hukumat har safar o'z qadamining boshqa davlat bilan munosabatlarga ta'sirini hisobga olishi lozim edi. Ammo bu holatda Eron hukumati inglizlar bilan kelishuvni "oqlangan" deb hisoblashi uchun asoslar mavjud edi.

Birinchidan, bo'lajak ingliz kompaniyasining faoliyat doirasidan 5 ta shimoliy viloyat (Rossiyaning "ta'sir doirasi") chiqarib tashlandi: d'Arsiga faqat janubiy Eronda neftni qidirish, qazib olish, tashish va sotish bo'yicha mutlaq huquq berildi[12]. Ikkinchidan, Eron hukumati Britaniyaga yon berish orqali Rossiya ta'sirini "muvozanatlashtirishga" intildi. Aslida,

XIX asrning 90-yillar oxirida u bir qator qarorlar qabul qilishga majbur bo‘lganki, natijada Eronda Rossiyaning moliyaviy ta’siri kuchaygan edi. Bu Britaniyada tashvish va ochiq norozilik uyg‘otdi. D’Arsiga konsessiya berish orqali Eron hukumati o‘z sodiqligini namoyish etib, inglizlarning e’tiborini qaytarishga umid qildi.

Konsessiya kelishuvi haqidagi dastlabki xabardan so‘ng Tehrondagi rus elchisi norozilik bildirdi.

Shohning chet ellikka yana bir konsessiya sotishi Rossiya hukumatini tashvishga solmasligi mumkin edi. Biroq aynan shu konsessiyaning berilish tarzi va mohiyati rus hukumatining, ayniqsa moliya vaziri Vittenberg g‘azabini qo‘zg‘atdi[13].

Erondagi britan konsessiyasi haqidagi xabar Peterburgga yetib kelgach, u yerda kuchli norozilik uyg‘otdi, shartnoma matni bilan tanishgandan so‘ng esa bu norozilik yanada kuchaydi. Tashqi ishlar vazirligi, ayniqsa moliya idorasi, unda nafaqat Erondagi rus ta’siriga zarba, balki rus importining eng muhim moddalaridan biri - Boku neftiga qarshi qaratilgan harakatni ham ko‘rdi. Mazkur neft tasvirlangan voqealar paytida Eron bozorida deyarli yagona hukmron bo‘lib, barcha neft mahsulotlari importining 90%-ni tashkil etardi[14].

Konsessiya shartnomasiga ko‘ra, Rossiya ta’siri ustun bo‘lgan shimoliy viloyatlar uning faoliyat doirasidan chiqarildi. Bu shart rus tomonini qanoatlantirishi kerak edi. Lekin aynan shu holat Peterburgda eng katta norozilikni keltirib chiqardi. Chunki d’Arsiga Eronning janubiy qismi orqali neft quvurlarini o‘tkazish uchun mutlaq huquq kafolatlangan edi. Bu esa bevosita Rossiya manfaatlariga daxldor bo‘lib, u XIX asrning 60-yillardan boshlab Fors ko‘rfazi portlaridan biriga neft quvuri qurishni rejalashtirgan va shu orqali nafaqat Eron, balki boshqa Sharq mamlakatlari iste’mol qiladigan neftni tashishni arzonlashtirishni mo‘ljallagan edi.

To‘g‘ri, 1884 yilda transeron quvuri loyihasi ilk bor ko‘rib chiqilganda, Maxsus kengash uni "oqibatsiz qoldirish" to‘g‘risida qaror qabul qilgan edi. Ammo 1901 yil yozida, Rossiya neft sanoatidagi inqiroz munosabati bilan, bu loyiha yana qaytishdi. Uni "Osiyoda kerosinimiz sotish bozorini kengaytirish zarurati bilan asosladilar, chunki transport xarajatlarini arzonlashtiradigan neft quvuri yotqizilsa, rus nefti raqiblari uchun u bilan bellashish imkoniyati yo‘qoladi" deb izohlashdi[15].

Neft quvurini qurish uchun konsessiya olish maqsadida podshoh diplomatiyasi Eronga diplomatik bosim o‘tkazdi. Ayniqsa, Moliya vazirligi va shaxsan Vitte bu masalada qat’iyat bilan harakat qilib, neft quvuri uchun konsessiyani Eronga rus zayomini berish sharti sifatida qo‘yishni talab etdi.

O‘sha paytida Rossiyaning o‘zi ham mablaqqa muhtoj bo‘lib, muntazam ravishda xalqaro birjadan qarz olardi. Biroq Eronda XIX asr 90-yillari oxiridan boshlab rus Hisob-ssuda banki

Eron hukumatining asosiy kreditoriga aylandi. Zayomlar esa Rossiyaning Sharqdagi iqtisodiy va siyosiy ta'sirining eng muhim vositasi edi[16].

Xususan, 1900 yil yanvarida Eron yillik 5% stavka bilan 22,5 million rubl miqdorida kredit oldi. Bu qarz 75 yilga mo'ljallangan bo'lib, foizlar va asosiy qarz summasi yiliga ikki marta – 1 yanvar va 1 iyulda to'lanishi lozim edi. To'lovlar Fars viloyati va Fors ko'rfazi bojxonalaridan tashqari mamlakatning barcha bojxona daromadlari bilan kafolatlangandi[17].

1901 yil sentyabrda Eronga navbatdagi zayom berishga rozilik berildi. Vitte uning shartlaridan biri sifatida neft quvuri uchun knsessiyani qo'ydi.

Biroq bu yo'nalishdagi barcha urinishlar natijasiz qoldi. Rossiya zayom berishni rad etib, bosim o'tkaza boshlagach, inglizlarning o'zлари Eronga kredit taklif qilishdi. Bundan tashqari, bir muddat o'tgach, Britaniyaning Sankt-Peterburgdagi elchisi Rossiya tashqi ishlari vaziriga neft quvuriga da'vo qilishdan voz kechishni talab qilgan eslatma xatini topshirdi.

Rus vakillari hukumatning neft quvuri loyihasiga aloqasi yo'qligini va ish butunlay xususiy korxona hisoblangan Hisob-ssuda banki qo'lida ekanligini bahona qilishga urindilar. Biroq bu rasmiy bahona edi - nafaqat hukumat neft quvuri bo'yicha muzokaralarda faol ishtirok etgani uchun, balki Eron Hisob-ssuda banki aslida Rossiya Davlat banking filiali bo'lgani uchun ham.

Shu bilan birga, rus vakillari ingliz konsessiyasi matnini e'tiborga olmay, Hisob-ssuda banking loyihasi faqat rus neftini import qilish va tranzitiga taalluqli bo'lib, d'Arsining huquqlarini buzmasligini ta'kidlay boshladilar.

O'sha paytda Buyuk Britaniya Janubiy Afrikadagi urush bilan band bo'lganidan foydalaniib, Rossiya Eronda yon berishlarni qo'lga kiritishga intildi. Biroq, Britaniya diplomatiyasi yon berish alomatlarini ko'rsatmadи, ayniqsa 1902 yil boshida burlarga qarshi harbiy harakatlar paytida inglizlar uchun qulay vaziyat yuzaga keldi.

Britaniya o'z pozitsiyasida qat'iy turdi. Tehronga qat'iy ogohlantirish berildi va Eron bosh vazirining ahvoli shu qadar murakkablashdiki, u iste'foga chiqish va lavozimdagi obro'sini yo'qotish xavfi ostida qoldi. Bunday natija Rossiya uchun maqbul emasdi, chunki bosh vazirning almashtirilishi Buyuk Britaniya foydasiga bo'lar va uning Erondagi mavqeini yanada mustahkamlash uchun ishlatilishi mumkin edi. Buning ustiga, 1902 yil fevralida d'Arsining o'zi 200.000 funt sterling miqdorida zayom taklif qildi va Eron shohi o'zining Yevropaga rejallashtirilgan safari uchun mablaqqa muhtojligi tufayli ingliz taklifini qabul qilishga moil bo'la boshladi. Rus elchisi K. Argiropulo neft quvuri uchun konsessiyadan voz kechishni va bunday shart qo'ymasdan zayom berishni maslahat berdi[18]. O'sha paytda Uzoq Sharqda kuchayib borayotgan keskinlik tufayli yuzaga kelgan vaziyatda Rossiya Britaniya bilan munosabatlarni

murakkablashtira olmadi va Eronga shartsiz zayom berib, transeron neft quvurini qurish loyihasidan voz kechishga majbur bo‘ldi.

Bundan tashqari, Rossiyaning Buyuk Britaniya bilan munosabatlarini keskinlashtirmaslik sabablarini tahlil qilganda, o‘sha paytda ham Londonda, ham Peterburgda ahamiyati anglanlab yetilgan nemis xavfini e’tiborga olish lozim. Germaniyaning Turkiyaga kirib borishi, xususan, Bag‘dod temir yo‘lining qurilishi har ikki davlat manfaatlariga tahdid solmoqda edi.

Germaniya o‘zining "quyosh ostidagi o‘rnini" qidirardi, chunki boshqa davlatlar XIX asr davomida chet ellarda mustamlakalar to‘plaganlar, u esa bunday imkoniyatga ega bo‘lmagan edi. Biroq endi birlashgach, davlat o‘z ta’sir doirasini kengaytirish usullariga e’tibor qarata oldi va ulardan biri Bag‘dod temir yo‘li edi. Bu ta’sir doirasining kengayishi iqtisodiy va diplomatik maqsadlarga erishish imkonini berardi[19].

Shu munosabat bilan 1902 yil o‘rtalarida Vitte maxsus xat bilan chiqib, unda “Germaniya Sharqda biz uchun ham, inglizlar uchun ham xavfli raqibga aylanish xavfini tug‘dirayotgan Bag‘dod yo‘lining ahamiyatini yo‘qqa chiqarish uchun” qat’iy choralar ko‘rish zarurligini ta’kidladi. Bu masalani hal qilish vositasi sifatida u "Rossiya orqali shimolga to‘g‘ri yo‘nalishda" Bag‘dod yo‘liga parallel Hind-Yevropa yo‘lini qurishni taklif etdi[20]. Biroq bu loyiha Rossiya hukumati tomonidan amalga oshirilmadi, hatto jiddiy muhokama ham qilinmadı.

Bu masala Britaniya uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etdi. Buning asosiy sababi Germaniyaning tobora kuchayib borayotgan tahdidi bo‘lib, u neft ishlarida ham o‘zini namoyon etishga ulgurgan edi. Bag‘dod temir yo‘li to‘g‘risidagi kelishuvga ko‘ra, nemislar 1904 yilda turk sultonni Abdulhamiddan Bag‘dod va Mosul viloyatlarida neft qidirish va qazib olish uchun d’Arsi olgan konsessiyaga o‘xhash konsessiya oldilar. Germaniyaning bu qadami kutilmagan emas edi, chunki Turkiyada neft konsessiyasini olishga urinishlar 1901 va 1902 yillardayoq bo‘lgan edi[21]. Endi esa, konsessiya olinganidan so‘ng, uni qo‘lga kiritgan Nemis banki (nemischa "Deutsche Bank") shoshilinch ravishda qidiruv ekspeditsiyasini tashkil etdi. Bu ekspeditsiya jo‘natilgani haqidagi xabar neftga qiziquvchi doiralarda shov-shuvga sabab bo‘ldi.

Amerikaliklar uchun bunday istiqbol umuman tasalli bermasdi. Ammo u Turkiyadagi konsessiya uchun o‘z rejalariga ega bo‘lgan britaniyaliklar uchun ham xavotirli edi. Darhaqiqat, 1901-1903 yillarda Eronda konsessiya olingach, d’Arsi vakillari Istanbulda bir necha oy bo‘lib, turk sultonidan Bag‘dod va Mosul viloyatlarida neft qazib olish huquqini olishga urindilar. Ular katta miqdorda pul sarfladilar, lekin hech narsaga erisha olmadilar. Endi bu konsessiya Germaniya qo‘liga o‘tdi. ""Deutsche Bank" Eron chegarasi yaqinida joylashgan xuddi shu viloyatlarda neft qidirish va qazib olish huquqini qo‘lga kiritdi.

Shu bilan birga, bu hududda Turkiya va Eron o‘rtasidagi chegara masalasi hal qilinmagan edi va bu jiddiy mojaro xavfini tug‘dirardi. Bundan tashqari, nemislar Erondagi britan korxonasini qo‘lga kiritish uchun d’Arsining moliyaviy qiyinchiliklaridan foydalanishga urinib, uning konsessiyasiga qiziqishlarini tezda namoyon etdilar. Ular britan neft konsessiyasini sotib olishni taklif qilishdi. To‘g‘ri, d’Arsi Germaniya taklifini rad etdi va buning ustiga, Britaniyaning Istanbuldagi elchisi yordamida Turkiyadan konsessiya olishga yana urinib ko‘rdi. Biroq bu safar ham muvaffaqiyatsizlikka uchradi[22].

Britaniya sarmoyasi Bokuning neft sanoatiga kirib kelishi va Sharqda neft savdosi uchun konsern tashkil etib, Batumdan rus neftini sotish joyiga yetkazib berishni o‘z zimmasiga olishi bilanoq, nemis kemachiligi Batum bilan savdo aloqalariga qiziqish bildira boshladи. Batumdagи Britaniya konsuli tashvish bilan Germanianing "Deutsche Levante Linie" kemachlik kompaniyasi Batum porti savdosining katta qismini nazorat qila boshlaganini ta’kidladi. Chet ellarda juda ko‘p miqdorda o‘z filiallarini ochayotgan german savdo-sanoat va bank firmalarining faolligi umuman ingliz vakillarini juda tashvishga solib qo‘ygan edi. Buyuk Britaniyaning Germanianing Erondagi rejalaridan xavotirlanishiga bevosita asos bor edi, chunki nemislar bu mamlakatga katta qiziqish bildirgan edilar.

1903 yilda Buyuk Britaniya Quvayt masalasi bo‘yicha bahsda g‘alaba qozondi. Germaniya Quvaytni Bag‘dod temir yo‘lining oxirgi bekti qilmoqchi va u yerda harbiy-dengiz bazasini tashkil etmoqchi edi. Britaniya parlamentida ushbu masala muhokamasi paytida notiqlardan biri "Fors ko‘rfazi qirg‘oqlarida Yevropa (Germaniya) qurol-aslaha omborini ko‘rgandan ko‘ra, Rossiyani Konstantinopolda (Istanbulda) ko‘rishni afzal bilishini" aytди[23].

Buyuk Britaniya o‘zi bu hududda nafaqat harbiy-siyosiy, balki tijorat vositalari bilan ham yanada mustahkam o‘rnashish uchun choralar ko‘rdi. Britaniya imperiyasining eng muhim markazlari bilan muntazam kemalar qatnoviga ega bo‘lgan Fors ko‘rfazi hududidagi savdoga katta e’tibor qaratildi. Biroq 1906 yilda Germanianing "Hamburg-Amerika Linie" kema kompaniyasi Fors ko‘rfazi portlari bilan oylik aloqani yo‘lga qo‘yib, ingliz kemalari bilan muvaffaqiyatli raqobatlasha boshladи. Bu qadam darhol Britaniya diplomatiyasining e’tiborini tortdi.

"Germaniya tahdidi" haqidagi xavotirlar yanada asosli edi, chunki Germaniya Quvayt masalasida mag‘lubiyatga uchragan bo‘lsa-da, bu portni o‘z temir yo‘l tizimi bilan bog‘lash fikridan voz kechmagan edi. Shuningdek, Germanianing Quvaytdagi rejalarini u yerda nemis harbiy kemalari uchun ko‘mir to‘xtash joyi tashkil etish loyihasi bilan bog‘layotgani ham inglizlar uchun sir emasdi.

Germanlarning Eronga kirib kelish xavfi Britaniya uchun yana shu bilan ham kuchayar ediki, nemis banklari shoh hukumatiga katta zayom taklif qilib, mahalliy moliya tizimini o‘ziga bo‘ysundirishga urinayotgan edi. Zayom berish Tehronda bir qator imtiyozlar, jumladan Eron yer osti boyliklarini o‘zlashtirishga da’vogar bo‘lgan Germaniya bankining ochilishi bilan birga amalga oshirilishi kerak edi. Bu masala bo‘yicha muzokaralar olib borish uchun 1907 yil boshida Tehronga Nemis Sharqiy banki ("Deutsche Orient Bank") vakili keldi. U Tehron hukumatidan 60 yil muddatga ingliz Shohinshoh banki namunasida bank tashkil etish uchun konsessiya so‘ray boshladi. Bu nafaqat Britaniyaning Erondagi ta’siriga, balki Buyuk Britaniyaning bu mamlakatdagi neft manfaatlariga qarshi qaratilgan harakat edi, chunki Nemis Sharqiy bankining ortida Drezden banki ("Dresdner Bank") turardi[24]. U yaqinda neft ishlari bo‘yicha o‘z faoliyatini Nemis banki bilan hamkorlikda olib borayotgan edi.

Nemis bank guruhi o‘z harakatini Shimoliy Erondagi neft konsessiyasi bo‘yicha muzokaralardan boshladi. Ular Eronning Bryusseldagi vakolatxonasi xodimi orqali amalgamashirildi. O‘sanda Germaniya tashqi ishlar idorasi rahbarlaridan biri "konsessiya Rossiya chegarasiga yaqin joylashgani va Peterburgda norozilik uyg‘otishi mumkinligi" sababli bu rejadan ogohlantirgan bo‘lsa-da, masalani yuqori doiralarda muhokama qilib, harakat qilishga qaror qilindi. Turkiya va Erondagi german diplomatlari hamda Rossiyadagi elchiga tegishli ko‘rsatmalar berildi.

Erondagi german loyihasi haqidagi xavotirlar, ayniqsa, Germaniya Sharqiy banki vakili Gutmanning shohga yo‘llagan maxfiy xatining mazmuni ma’lum bo‘lganidan keyin kuchaydi. Bu hujjatdagi Eron kon boyliklarini qazib olish monopoliyasini berish talabi Britaniya elchisi Spring-Raysni tashvishga soldi. Buni ingliz neft konsessisiga qarshi chiqish deb baholagan elchi shohga norozilik bildirib, Buyuk Britaniya bilan imzolangan shartnomalarni bajarishni talab qildi[25]. Spring-Raysning bayonotini Rossiya va Fransiya vakillari, ya’ni tez orada Germaniyaga qarshi siyosiy ittifoq tuzishi kerak bo‘lgan davlatlar qo‘llab-quvvatladi. Erondagi ingliz-fransuz-rus qo‘shma harakati kelajakdagi ittifoq kuchlarini sinab ko‘rish va uning a’zolarining birdamligini namoyish etish edi. Natijada, Gutman Tehronda Germaniya bankini ochishga ruxsat olgan bo‘lsa-da, unga hech qanday imtiyoz berilmadi[26]. To‘g‘ri, keyinchalik bu masalani muhokama qilishga yana bir necha marta urinib ko‘rildi. 1909 yilda Germaniya hukumatining talabi bilan Nemis banki bu ish bilan shug‘ullandi va uning vakili Tehronga tashrif buyurdi. Biroq Erondagi german banki loyihasi hech qachon amalgamashdi. 1910 yil oxiri - 1911 yil boshlarida uni jonlantirish uchun so‘nggi urinish qilindi, ammo bu ham to‘liq muvaffaqiyatsizlikka uchradi[27].

## Xulosa

Germaniya siyosati Britaniyada katta xavotir uyg'otdi. Erondagi neft konsessiyasiga Britaniya harbiy-dengiz siyosati manfaatlari bilan bog'liq umidlar bog'langan edi. Fisher Admirallikning bиринчи dengiz lordi etib tayinlangandan so'ng dastlabki harakatlardan biri Britaniya neft mulkularini kengaytirish imkoniyatlarini o'rganish uchun maxsus komissiya tuzish bo'lgani bejiz emas. Tabiiy ravishda, Erondagi neft konsessiyasining taqdiri masalasi komissiya faoliyatida markaziy o'rinni egalladi. Flotni ko'mirdan neft yoqilg'isiga o'tkazishning muhimligini anglagan komissiya, neft bilan ta'minlashning ishonchli manbalari yo'qligidan tashvishga tushdi. D'Arsining qiyinchiliklarini bilgan va uning korxonasi inglizlar qo'lidan chiqib ketishidan xavotirga tushgan Admirallik, d'Arsi korxonalarini moliyalashtirish ishlarni yo'lga qo'ydi. Shu maqsadda 1905 yil may oyida "Konsessiya sindikati" ("Concession Syndicate Ltd.") tashkil etilib, u Eronda ishlarni davom ettirish uchun mablag' ajratdi[28].

"Concession Syndicate Ltd." Eronning janubi-g'arbida neft qidirishni davom ettirdi. 1905 yilda kompaniya oz miqdorda neft topishga erishdi. Bu umid baxsh etardi. Burg'ulash ishlari Xuziston viloyatiga ko'chirildi[29].

Sindikat tashkil etilgach, d'Arsi "Foreign Office"ga murojaat qilib, Eron shohining konsessiyani bekor qilish yoki unga aralashish uchun har qanday urinishida, shuningdek, Rossiya yoki boshqa qo'shni davlat uning amalga oshirilishiga to'sqinlik qilmoqchi bo'lsa, hukumatdan sindikatga zarur yordam ko'rsatishni so'radi. Biroq "Foreign Office" uchun bu o'z-o'zidan tushunarli edi.

Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, d'Arsining xavotirlari o'rinsiz bo'lib chiqdi. Rossiya o'sha paytda Yaponiya bilan urushda band edi. Eron hukumati esa harakatsiz qoldi. Ingлиз tadbirkorlarida muammolar paydo bo'ldi, ammo butunlay boshqa turdag'i. Mahalliy *baxtiyorilar* qabilalari bilan munosabatlarni tartibga solish zarur edi, chunki d'Arsi Qasri-Shirin yaqinida neft qidirishdagi muvaffaqiyatsizliklardan so'ng bu hududda yangi qidiruv ishlarni boshlashi kerak edi. *Baxtiyorilar* xonlari bilan alohida kelishuvga erishishga to'g'ri keldi: ularga ushbu hududdagi barcha neft korxonalarining 3% ulushini va kompaniya mulkini qo'riqlash uchun alohida haq ajratildi[30]. Biroq, keyinchalik, 1905-1911 yillarda Erondagi inqilobiy harakatlar tufayli, *baxtiyorilar* xonlari bilan tuzilgan bitim zarur kafolatlarni bera olmasligi ayon bo'ldi. Kompaniya ob'ektlarida g'alayonlar boshlandi, ingliz xodimlari hujumga uchradi va mahalliy aholining talabi bilan kompaniya vakillari burg'ulash ishlarni to'xtatishga majbur bo'ldi[31]. Bunday sharoitda Britaniya hukumati shoshilinch ravishda leytenant Vilson boshchiligidagi harbiy bo'linmani Hindistondan olib keldi. Bundan tashqari, Qarun daryosi bo'ylab ingliz harbiy

kemasi jo‘natildi. Bir vaqtning o‘zida ingliz kreyserlari Fors ko‘rfazi qirg‘oqlarida patrullik qila boshladi[32].

Bu choralar ko‘rilgandan so‘ng, d’Arsi kompaniyasi qidiruv ishlarini davom ettira oldi va nihoyat, 1908 yilda neft topildi. 1908 yil 28 iyunda Maydon-i-Naftun hududida katta neft favvorasi otilib[33], dunyodagi eng yirik neft konlaridan biri kashf etilganini e’lon qildi.

Istiqlbolli konning kashf etilishi Erondagи Britaniya neft konsessiyasining muvaffaqiyatini ta’minladi. Biroq, boshqa tomondan, bu kashfiyotdan avval 1907 yilda Rossiya bilan imzolangan kelishuv ham muhim ahamiyatga ega edi. Ushbu kelishuv butun Janubiy Eronni Britaniyaning “ta’sir doirasi” sifatida mustahkamladi. Ma’lumki, bu shartnoma xalqaro munosabatlarning keyingi rivojlanishi uchun uzoq muddatli oqibatlarga olib keldi.

#### **Manbalar va adabiyotlar:**

1. Лисичкин С.М. Нефтяная промышленность стран Ближнего, Среднего и Дальнего Востока. -Москва: Гостоптехиздат, 1962. -С.10.
2. Curzon G.N. Persia and the Persian question, vol. I. –London: Longmans Green, 1892. -P. 480.
3. Габриэльян С. Основные направления внешней политики Великобритании в Иране в конце XIX века. – Ташкент: «TURON-IQBOL», 2022. -С.55.
4. Shwadran B. The Middle East, Oil and the Great Powers. -New-York: Praeger, 1955. -P. 14-15.
5. Фурсенко А.А. Нефтяные тресты и мировая политика. 1880-е годы-1918 г. -Москва - Ленинград: Наука, 1965. -С.262.
6. Фурсенко А.А. Нефтяные тресты и мировая политика. 1880-е годы-1918 г. –Москва - Ленинград: Наука, 1965. -С.263.
7. Elwell-Sutton L.P. Persian Oil. A Study in Power Politics. –London: Lawrence & Wishart, 1955. -P. 24.
8. Кантимирова Р.И. Английские концессии в Иране в конце XIX – начале XX века // Новое слово в науке и практике: гипотезы и апробация результатов исследований. №11, 2014. –С.35
9. Longhurst H. Adventure in Oil. The Story of British Petroleum. –London: Sidgwick & Jackson, 1959. -P. 23-24.
10. История дипломатии, т. II. –Москва: Госполитиздат, 1963. -С. 334.
11. Ананьев Б.В. Россия и концессия д’Арси // Исторические записки, т. 66, -Москва: Академия наук, 1960. -С. 279.
12. RDTA, 560-fond, 28-ro’yxat, 247-ish, 7-varaq.

13. Фируз Казем-Заде. Борьба за влияние в Персии. Дипломатическое противостояние России и Англии. Глава 5. // ([https://statehistory.ru/books/Firuz-Kazem-Zade\\_Borba-za-vliyanie-v-Persii--Diplomaticeskoe-protivostoyanie-Rossii-i-Anglii/7](https://statehistory.ru/books/Firuz-Kazem-Zade_Borba-za-vliyanie-v-Persii--Diplomaticeskoe-protivostoyanie-Rossii-i-Anglii/7)) дата обращения: 22.03.2025.
14. Ананьевич Б.В. Россия и концессия д'Арси // Исторические записки, т. 66, - Москва: Академия наук, 1960. -С. 283,287-289.
15. RDTA, 560-fond, 28-ro'uxat, 247-ish, 13-16-varaqlar.
16. Монополии и иностранный капитал в России, -Москва –Ленинград: Академия наук, 1962. -С. 277.
17. Габриэльян С. История внешнеполитического соперничества европейских государств в Иране: геоэкономические аспекты (конец XIX-начало XX в.) –Ташкент: «Bookmany print», 2023. –С. 40.
18. RDTA, 560-fond, 28-ro'uxat, 247-ish, 49, 141-varaqlar.
19. Габриэльян С. История внешнеполитического соперничества европейских государств в Иране: геоэкономические аспекты (конец XIX-начало XX в.) –Ташкент: «Bookmany print», 2023. –С. 60.
20. Фурсенко А.А. Нефтяные тресты и мировая политика. 1880-е годы-1918 г. – Москва –Ленинград: Наука, 1965. С.271.
21. Longrigg S.H. Oil in the Middle East, Its Discovery and Development. - 2-nd ed. - London-New York: Royal Institute of International Affairs, 1961. -P.28.
22. Schwadran B. The Middle East, Oil and the Great Powers. -New-York: Praeger, 1955. -P. 193.
23. Фурсенко А.А. Нефтяные тресты и мировая политика. 1880-е годы-1918 г. – Москва –Ленинград: Наука, 1965. С.274.
24. Фурсенко А.А. Нефтяные тресты и мировая политика. 1880-е годы-1918 г. – Москва –Ленинград: Наука, 1965. –С. 276
25. RDTA, ф. 560-fond, 28-ro'uxat, 359-ish, 75, 57-varaqlar.
26. Фурсенко А.А. Нефтяные тресты и мировая политика. 1880-е годы-1918 г. – Москва –Ленинград: Наука, 1965. –С. 277.
27. Martin B.G. German-Persian Relations 1873-1912. -Gravenhage: Mouton & Co., 1959. –P. 124, 125, 133-135.
28. Sykes P. A History of Persia, vol. II. –London: Macmillan & Co., Ltd., 1921, -P. 535.
29. Пантелеев А. Иранская нефть от Ройтера до Черчилля // (<http://neftianka.ru/iranian-oil-from-reuter-to-churchill/>) дата обращения: 21.03.2025.
30. Фурсенко А.А. Нефтяные тресты и мировая политика. 1880-е годы-1918 г. – Москва –Ленинград: Наука, 1965. –С. 279.
31. Иванов М.С. Иранская революция 1905-1911 годов. –Москва: Изд-во ИМО 1957. -С. 130, 131.
32. RDTA, 560-fond, 28-ro'uxat, 369-ish, 112-varaq
33. Брукс М. Нефть и внешняя политика. (<https://litvek.com/br/181273?p=15>) // дата обращения: 21.03.2025